

GLOBALLASHUV VA DIN

Mustafayev Ulash Utayevich

Termiz davlat universiteti Falsfa kafedrası

falsafa fanlari nomzodi, dotsent

ulashmustafoev1957@gmail.com

ANNOTATSIYA

Maqolada globallashuv jarayonlarining diniy hayotga ko'rsatgan ta'siri, zamonaviy axborot makoni va migratsiya oqimlari fonida diniy g'oyalar, amaliyotlar va identifikatsiyaning o'zgarishi tahlil qilinadi. Globallashuv natijasida diniy qadriyatlarning transmilliy xarakter kasb etishi, diniy harakatlar va yangi sinkretik oqimlarning paydo bo'lishi, shuningdek, global muammolar radikalizm, ekologik inqiroz va iqlim o'zgarishi bilan bog'liq ijtimoiy-diniy jarayonlar chuqur yoritilgan. Maqola dinning global jarayonlarda ijtimoiy barqarorlik, ma'naviy yangilanish va madaniy uyg'unlikni ta'minlovchi omil sifatidagi rolini ochib beradi.

Kalit so'zlar: Globallashuv, din, diniy globallashuv, transmilliy din, radikalizm, migratsiya, axborot maydoni, diniy qadriyatlar, sinkretik oqimlar, yangi diniy harakatlar, global muammolar, ekologiya, iqlim o'zgarishi, madaniy almashinuv, ijtimoiy barqarorlik, ma'naviy xavfsizlik.

ABSTRACT

The article analyzes the impact of globalization processes on religious life, the transformation of religious ideas, practices and identity against the background of the modern information space and migration flows. The transnational nature of religious values, the emergence of religious movements and new syncretic movements as a result of globalization, as well as socio-religious processes related to global problems such as radicalism, the ecological crisis and climate change are deeply covered. The article reveals the role of religion in global processes as a factor ensuring social stability, spiritual renewal and cultural harmony.

Keywords: Globalization, religion, religious globalization, transnational religion, radicalism, migration, information space, religious values, syncretic currents, new religious movements, global problems, ecology, climate change, cultural exchange, social stability, spiritual security.

АННОТАЦИЯ

В статье анализируется влияние глобализационных процессов на религиозную жизнь, трансформация религиозных представлений, практик и идентичности на фоне современного информационного пространства и миграционных потоков. Подробно рассматриваются транснациональный

характер религиозных ценностей, возникновение религиозных движений и новых синкретических течений в результате глобализации, а также социально-религиозные процессы, связанные с глобальными проблемами, такими как радикализм, экологический кризис и изменение климата. Раскрывается роль религии в глобальных процессах как фактора, обеспечивающего социальную стабильность, духовное обновление и культурную гармонию.

Ключевые слова: Глобализация, религия, религиозная глобализация, транснациональная религия, радикализм, миграция, информационное пространство, религиозные ценности, синкретические течения, новые религиозные движения, глобальные проблемы, экология, изменение климата, культурный обмен, социальная стабильность, духовная безопасность.

KIRISH (INTRODUCTION)

Bugun globallashuvning oqibatlarini siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy sohalarining har bir tarmog'ida kuzatayapmiz hamda uning oqibatlari haqida har xil fikrlar aytilmoqda. Ilmiy maktablarda esa o'nlab dissertatsiyalar himoya qilinmoqda. Insoniyatning endi globallashuvdan chetlab o'tolmasligi ma'lum bo'lsa-da, uning salbiy oqibatlarini kamaytirish borasida bosh qotirmoqda." Hozirgi kunda dunyoda xalqaro institutlarning o'rni va roli zaiflashmoqda, qarama-qarshilik, nizo va urushlar kuchaymoqda, texnologik va ijtimoiy tengsizlik keskin oshmoqda, iqtisodiy va gumanitar inqirozlar ortib bormoqda. Bularning hammasi mutlaqo yangi, xavotirli geosiyosiy voqelikni vujudga keltirmoqda."¹ deb ta'kidladi. Bu jarayon diniy hayotga ham o'z ta'sirini o'tkazmoqda. Bugun diniy globallashuv termini muomalaga kirib keldi. Diniy globallashuv - dinlar, diniy g'oyalar va amaliyotlarining integratsiyalashuvi, birlashishi va tarqalish jarayonidir. Ushbu jarayon diniy aloqalarning kuchayishi, diniy oqimlarning bir-biriga ta'sir qilishi va global miqyosda diniy g'oyalarning kengroq tarqalishi bilan tavsiflanadi. Bu jarayon avvalo diniy qadriyatlarning tarqalishida sezilmoqda chunki, globallashuv tufayli turli dinlar va ularning g'oyalari dunyoning turli chekkalariga tez va keng tarqaladi.

Ikkinchidan, diniy aloqalarning kuchayishi ham turli mamlakatlardagi odamlarning o'zaro diniy muloqotlarda qatnashishiga olib kelmoqda, natijada bu diniy g'oyalarning almashinuviga olib kelmoqda. Uchinchidan, diniy oqimlarning ta'siri tufayli turli diniy oqimlar bir-biriga ta'sir qilib, o'zaro integratsiyalanadi va yangi diniy shakllar paydo bo'lishiga sabab bo'lishi mumkin. To'rtinchidan, diniy

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 80-sessiyasidagi nutqidan 23.09.2025.

g'oyalarning global miqyosda tarqalishi ko'p hollarda, madaniy, iqtisodiy va siyosiy globallashuv bilan parallel ravishda diniy g'oyalar ham global miqyosda keng tarqalishiga olib kelmoqda. Globallashuv davrida dunyo bir organizm, sog'lom organizm barabar rivojlanishi tabiiy narsa, ammo unga tashqi ta'sirlar tufayli organizmning nosog'lom rivojlanishiga olib keladigan mikroorganizmlar ham bor. Buni 2019-2020 yillardagi pandemiya davrida insoniyat yaqqol sezdi. Din ma'naviy hodisa bo'lsa-da, unga dunyo ijtimoiy hayotida salbiy ta'sir o'tkazadigan omillar ham bor. Bu e'tiqod va qadriyatlar bilan bog'liqdir. Jamiyatdagi bilimsizlik va jaholot, moddaparastlik, soxta diniy targ'ibot, ijtimoiy va oilada tarbiyaning zaifligi, katta davlatlarning mutaassib qarashlari, g'arb gedonizmi g'oyalari globallashuv davri mikroorganizmlari sanaladi. Dinning globallashuvi din paydo bo'lgandan buyon kuzatilmoqda."So'nggi yillarda jahon miqyosida diniy ta'limga bo'lgan ehtiyoj ortib bormoqda, diniy e'tiqodning qayta jonlanishi, diniy ma'rifatga bo'lgan munosabatning o'zgarishi, yuksak axborot kommunikatsiya texnologiyalari sababli jahon dinlari va konfessiyalarining integratsiyalashuvi kengayishi, diniy tashkilotlar sonining ortishi va xalqaro konferentsiyalar orqali muloqotlarning jadallashishi kabi hodisalar diniy globallashuvning bugungi kunga kelib keng ko'lamli jarayonga aylanganligini namoyon etmoqda"² deb yozadi. Muallifning fikrini inkor qilmagan holda shuni ta'kidlaymizki, bizning tadqiqotlarga ko'ra bu jarayon ancha ilgari boshlangan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD (LITERATURE REVIEW)

G'arb tadqiqotchilari globallashuvni asosan ijtimoiy, siyosiy va madaniy integratsiya jarayoni sifatida talqin etib, uning din bilan o'zaro ta'sirini sekulyarizm, transmilliylik va modernizatsiya nuqtai nazardan o'rgandilar. Islomshunos olimlar globallashuvni madaniy - ma'naviy qadriyatlarga tahdid sifatida tahlil qiladilar, biroq shu bilan birga dinning axloq normalariga va ijtimoiy barqarorlikni saqlashdagi ijobiy rolini ta'kidlaydi. O'zbekiston olimlari tadqiqotlarida mahalliy tadqiqotchilar esa globallashuvni milliy ma'naviyat, diniy qadriyatlar va madaniy merosni saqlash nuqtayi nazaridan o'rganmoqdalar. Globallashuv va uning tarixi, mohiyati hamda oqibqlari haqida O'zbekiston faylasuf olimlari ham tadqiqotlar olib bormoqda. M.Xajiyevaning "Globallashuv asoslari", B.Namozov va B.O'razovlarning "Globallashuv va diniy jarayonlar", I.Saifnazarov va A.Obidovlarning "Dinlararo hamjihatlik - ijtimoiy barqarorlik omili", J.Yaxshilikov va N.Muhammadiyevlarning "Falsafa", "Milliy g'oya va mafkura", A.Ergashevning "Globallashuv va diniy qadriyatlar", I.Ibragimovning "Globallashuv jarayonida ma'naviy qadriyatlar

² Muxtarov B. Globallashuv jarayonida zamonaviy tariqatlar faoliyati., o'quv-uslubiy qo'llanma. "BOOKMANY PRINT" Toshkent-2022, qarang 7-8 sahifa.

transformatsiyasi” kabi tadqiqotlari muhim ahamiyatga ega. Mazkur mavzuni o‘rganishda tarixiy, falsafiy, sotsiologik va qiyosiy metodlardan foydalanilgan.

NATIJALAR (RESULTS)

Mavzuni o‘rganish va tahlil qilish natijasida diniy harakatlar xalqaro tashkilotlar shaklida faoliyat yuritayotganligi, migratsiya oqimlari diniy amaliyotlarning boshqa mamlakatlarga ko‘chib o‘tishini tezlashtirayotganligi va axborot texnologiyalari diniy bilim va marosimlarning virtual makonga ko‘chirayotganligi haqida nazariy va amaliy xulosalar chiqarishga asos bo‘ldi. Diniy g‘oyalar tarqalishining yangi ko‘rinishlari virtual da‘vat va onlayn diniy ta‘lim, ijtimoiy tarmoqlarda diniy kontent, transmilliy diniy tarmoqlar mazmuni o‘rganildi. Shu bilan bir qatorda global axborot muhitida diniy g‘oyalar tarqalishi bir qator muammolar ham mavjudligini ko‘rsatmoqda. Jumladan radikal g‘oyalar, diniy manipulyatsiya, soxta diniy manbalar, virtual dindorlik va dinning axborot bozorida tijorat vositasi sifatida ishlatilishi holatlari uchramoqda.

MUHOKAMA (DISCUSSION)

Globallashuvning dastlabki bosqichi XV-XVIII asrga to‘g‘ri keladi. Bu davr geografik kashfiyotlar va mustamlakachilik siyosatining boshlanishi global munosabatlarning poydevorini yaratgan edi. Ikkinchi bosqich XVIII-XIX asrlarga to‘g‘ri keladi va bu davr sanoat inqilobi davridir. Sanoat korxonalaridagi texnologik taraqqiyot va xalqaro savdoning rivojlanishi bilan xarakterlanadi. Uchinchi bosqich esa XX asrning o‘rtalari - “axborot davrining boshlanishi” va bu davrda xalqaro tashkilotlarning paydo bo‘lishi, televidenie, telefon tarmoqlari va kompyuter texnologiyalari jadal rivojlanishi bilan ajralib turadi. To‘rtinchisi zamonaviy bosqich bu XXI asr va hozirgi davrga to‘g‘ri kelmoqda. Bu davr internet, sun‘iy intellekt va raqamlashish jarayoni bilan ajralib turadi.

Dinning globallashuv davridagi o‘rni qanday bo‘ladi degan savol kelib chiqadi? Din eng qadimgi ma‘naviy tizim. Globallashuv iqtisodiy va texnologik rivojlanishga olib kelsa-da ma‘naviy sohada esa xavfli omillarni ham yuzaga keltirmoqda.

Globallashuv davrida din ma‘naviy-axloqiy barqororlikni ta‘minlash uchun muhim rol o‘ynaydi, qachonki, tolerantlik (bag‘rikenglik) ni ta‘minlab umuminsoniy qadriyatlarni muhofaza qilsa, dinlararo muloqotni y‘ni dinlararo hamkorlikni kengaytirib, tinch-totuv yashash g‘oyasini kun tartibiga olib chiqsa va madaniyatlararo integratsiyani kuchaytirsam yaxshi natija beradi. YUNESKO ning 43-Bosh konferentsiyasining Samarqand shahrida o‘tkazilishi bunga yaqqol misol bo‘ladi.

Globallashuv davrida dinning salbiy jihatlari ham ko‘zga tashlanmoqda. Dinni siyosiylashtirish, ya‘ni ba‘zi xorijiy davlatlarda dindan siyosiy kuch sifatida

foydalanish sezilmoqda. Bu sohaga O'zbekiston Respublikasi tajribasi xorijiy davlatlarga namuna bo'lishi mumkin. Ozbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida "Konstitutsiyaviy tuzumni zo'rlik bilan o'zgartirishni maqsad qilib qo'yuvchi, O'zbekistonning davlat suverenitetiga, hududiy yaxlitligiga va xavfsizligiga qarshi chiquvchi, urushni, ijtimoiy, milliy, irqiy hamda diniy adovatni targ'ib qiluvchi, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlari va erkinliklariga, aholining sog'lig'iga, ijtimoiy axloqqa tajovuz qiluvchi siyosiy partiyalarning, boshqa nodavlat notijorat tashkilotlarining, shuningdek milliy va diniy belgilariga ko'ra siyosiy partiyalarning, harbiylashtirilgan birlashmalarning tashkil etilishi va faoliyati taqiqlanadi"³ deyilgan. Dinni siyosiylashtirish ertaga radikalizm, eksterimizm va terrorizmni keltirib chiqarishi mumkinligi jahon davlatlari tajribasidan ma'lum. Globallashuv davrida ma'naviy befarqlik va diniy plyuralizm bahonasida turli diniy g'oyalarning nazariy va amaliy aralashuvi ham sodir bo'lmoqda. Bu ko'proq yoshlar orasida ro'y bermoqda. Bu turli dinlarning aqidalarini noto'g'ri talqin qilishga olib keladi. Bu millatlararo va madaniyatlararo ziddiyatlarga sabab bo'lishi mumkin.

Hozirgi raqamlashish dunyosi dinlarning zimmasiga yangi vazifalar ham yuklamoqda. Jumladan, urush, ekologik tahdid, axloq devalvatsiyasining oldini olishga va yoshlar ongida ma'naviy immunitetni shakllantirishga ko'maklashish.

Axborot davri, jamiyatning demografiyasi va migratsiyasi, hozirgi global muammolar, turizmning rivojlanishi globallashuv davrida dinning transmilliylashuviga sabab bo'lmoqda. Transmilliy tushunchasining ma'nosi(transmilliylik-trans lotincha so'z bo'lib "ortiq" yoki "tashqari", natsiyo-millat)ni beradi. Diniy guruhlarining ikkinchi bir davlat hududlarida paydo bo'lishi demakdir. Demak, diniy e'tiqodlarning milliy, etnik chegaralardan tashqariga chiqishi deb tushunsa bo'ladi.Transmilliy diniy tashkilotlarga Islom hamkorlik tashkiloti (IHT),Vatikan xalqaro missiyalari, xalqaro buddizm jamiyatlari, Yogova shohidlari tashkiloti, Evangeliya cherkovlarini kiritish mumkin. Bundan tashqari hozir virtual(onlayn) diniy jamoalar ham ko'payib bormoqda.Yaqinda O'zbekistonda taqiqlangan manba va kontentlar ro'yxati e'lon qilindi. Oliy sud ushbu materiallarni ekstremizm va terrorizm g'oyalari bilan yo'g'rilgan deb topgan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi tomonidan ekstremizm, terrorizm va aqidaparastlik g'oyalari bilan yog'rilgan deb topilgan, shuningdek, aholi orasida turli ixtilof va tushunmovchiliklar, mutaassiblik hamda ekstremistik, terroristik tashkilotlar va ularning g'oyaviy yetakchilari faoliyatiga nisbatan xayrixohlik kayfiyatini uyg'otuvchi materiallar ro'yxati (2025-yil 2-sentabr holatiga ko'ra)da

³ <https://lex.uz/docs/-6445145> 71-modda

1300 ga yaqin taqiqlangan saytlar mavjud.⁴ Xalqaro miqiyosda xorijiy davlatlarda turli diniy diasporalar ham transmilliy ko‘rinishga kiradi. Diniy g‘oyalarning madaniyatlararo singib borishi jumladan yoga mashqlari, meditatsiya ham dinnig transmilliy tus olishiga sabab bo‘lishi mumkin. Virtual olam diniy qadriyatlarga, urf-odatlariga ham ta’sir o‘tkazib turli diniy talqinlarni keltirib chiqarmoqda. Diniy ma’lumot virtual manbadan olinganda an’anaviy ta’limotdan uzoqlashishi mumkin. Shuning uchun islom diniga oid kontentlarni uz.domeniga ega bo‘lgan saytlardan olish lozim. Jumladan, diniy amaliy marosimlarning ham modernizatsiyalashuvi kuzatilmoqda. Diniy kiyinish, onlayn diniy darslar globallashuv natijasidir.

Sekulyarizm” so‘zi lotincha “saeculum” (ba’zan “saecularis”) so‘zidan olingan bo‘lib, uning ma’nosi “dunyo”, “zamon”, “dunyoviy hayotga oid” degan ma’no beradi. Ya’ni sekulyar “dunyoviy”, dinga bog‘liq bo‘lmagan narsani anglatadi. Shundan kelib chiqib, sekulyarizm deganda “dunyo ishlari bilan diniy masalalarni bir-biridan ajratish tamoyili” tushuniladi. Bundan shunday xulosa chiqadiki, dinning davlat ishlariga aralashmasligi tamoyili. Davlatning siyosati, ta’limi, fan va madaniyati, qonunchiligi diniy ta’sirdan xoli bo‘lishini nazarda tutuvchi g‘oyaga - sekulyarizm desa bo‘ladi ekan.

“O‘zbekiston Respublikasida din davlatdan ajratilgan. O‘zbekiston Respublikasida diniy tashkilotlar va davlat organlarining faoliyati o‘zaro aralashmaslik asosida amalga oshiriladi.

Davlat turli dinlarga e’tiqod qiladigan va ularga e’tiqod qilmaydigan fuqarolar, turli dinlarga mansub diniy tashkilotlar o‘rtasida o‘zaro murosa va hurmat o‘rnatilishiga ko‘maklashadi, diniy aqidaparastlik hamda ekstremizmga, munosabatlarni qarama-qarshi qo‘yish va keskinlashtirishga, turli konfessiyalar o‘rtasida adovatni avj oldirishga qaratilgan xatti-harakatlarga yo‘l qo‘ymaydi.

Davlat konfessiyalarning tinch-totuv yashashiga kafil bo‘ladi. Missionerlik va prozelitizmni amalga oshirishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Davlat diniy tashkilotlar zimmasiga davlatning biror-bir vazifalarini bajarishni yuklamaydi, ularning qonunchilikka zid bo‘lmagan faoliyatiga aralashmaydi. Diniy tashkilotlar davlat vazifalarini bajarmaydi. Davlat diniy tashkilotlarning faoliyatini moliyalashtirmaydi va dinga e’tiqod qiluvchilarning din bilan bog‘liq his-tuyg‘ularini haqoratlaydigan faoliyatga yo‘l qo‘ymaydi”⁵.

Shu o‘rinda, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning “Ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash, muqaddas dinimizning sofliqini asrash – davr talabi” mavzusidagi anjumanda so‘zlagan nutqida, – “Sizlarga yaxshi ma’lum,

⁴ [Taqiqlangan materiallar.pdf](#)

⁵ <https://lex.uz/docs/-5491534> O‘zbekiston Respublikasining Qonuni “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida” 05.07.2021 yildagi O‘RQ-699-son 7-modda. Dinning davlatdan ajratilganligi

bizning davlatimiz ko‘p millatli va ko‘p konfessiyali davlat. Bugungi kunda mamlakatimizda 130 dan ortiq millat va elat vakillari bir oila farzandlaridek ahil va inoq yashamoqda. Bu borada, hech shubhasiz, xalqimizga azaldan xos bo‘lgan bag‘rikenglik an‘analari muhim rol o‘ynamoqda. Ana shu haqiqatning tarixiy tasdig‘i sifatida bir misol keltirmoqchiman. Samarqand shahrida Sohibqiron Amir Temur davrida bunyod etilgan, Doniyor payg‘ambar nomi bilan ataladigan maqbara islom, xristian va yahudiylik dini vakillari tomonidan birdek e‘zozlanadi. El-yurtimiz necha asrlardan buyon bu qutlug‘ qadamjoni asrab avaylab, obod qilib, unga hurmat-ehtirom ko‘rsatib kelmoqda. Shu birgina misolning o‘zi olijanoblik, ezgulik va tom ma‘nodagi bag‘rikenglik fazilati xalqimiz tabiati, mentaliteti asosini tashkil etishidan dalolat beradi”⁶ – degan so‘zlari o‘ta muhim ahamiyat kasb etadi.

“Sharqdan farqli o‘laroq g‘arbda nafaqat uyg‘onish davri (Renessans), balki sekulyarizm prinsipi ham birmuncha kechroq jamiyat hayotida qaror topdi. Ushbu muammo tarixi bilan maxsus shug‘ullanuvchi tadqiqotchilarning ta‘kidlashicha “sekulyarizm” atamasi ilk bor 1648 yili Fransiya elchisi tomonidan Vestfal sulhi muzokaralari davomida ruhoniylar institutini jamiyat hayotidagi o‘rniga barham berish ma‘nosida qayd etilgan”.⁷ Bu jarayonlar Republikamizning atoqli faylasuf olimlari I.Saifnazarov va A.Obidoblarning ”Dinlararo hamjihatlik – ijtimoiy barqarorlik omili” monografiyasida batafsil yoritib berilgan.⁸

Globalashuv davrida kosmopolitizmni targ‘ib qilayotgan diniy guruhlar ham uchramoqda. Kosmopolitizm-(yunoncha dunyo fuqarosi) dunyo fuqaroligini da‘vo qilish va bevatanklikni targ‘ib etish. Suqrot (“kosmopolitizm” atamasi muallifi): “Agarda faylasuflarning odam va Xudoning o‘rtasidagi yaqinlik bor deganlari to‘g‘ri bo‘lsa, unda insonning vatani qayer, degan savolga Suqrotning “Men afinalik ham, Karfogenlik ham emasman, men kosmopolitman” degan so‘zlari bilan javob berish lozim bo‘lgan. G‘arbda Iskandar imperiyasi, Rim imperiyasining kuchayishi kosmopolitik qarashlarning paydo bo‘lishiga olib kelgan: “Qaer yaxshi bo‘lsa, o‘sha joy Vatan” degan. O‘rta asrlarda katolik cherkovi keskin kosmopolitik tendentsiyalar tarafdori bo‘lgan. Demak, kosmopolitizm milliy va davlat suverenitetini rad etib, milliy an‘ana, madaniyat, vatanparvarlik tuyg‘ularidan voz kechish g‘oyasini ilgari suradi.

⁶ Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. – T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 464-465-betlar.

⁷ Qarang: Питш Р. Современное секулярное государство в условиях исламского общества. // Секуляризм и ислам в современном государстве: Что их объединяет? Материалы международного “круглого стола” (Алматы за ноября 2004 г.). Б.К.Султанов – Алматы: КНСИ при Президенте Р.К., 2008. – с. 39.

⁸ Saifnazarov, Ismoil. Dinlararo hamjihatlik - ijtimoiy barqarorlik omili [Matn] : monografiya / I. Saifnazarov, A. Obidov. - Toshkent : Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi, 2019. - 142 b.

Bahoiylik diniy-siyosiy oqimida kosmopolitizm (bevatanlik) g'oyasi -bahoiylik oqimi XIX asr o'rtalarida Erondagi bobiylik harakati davomi sifatida Iroqda vujudga kelgan. Asoschisi Bahoulllo. G'oyasi: insoniyat uchun yagona din, iqtisodiyot va davlat zarur. Muhimi – xudoni sevish kerak. Chunki muhabbat taraqqiyotning sharti va koinot qonunidir. Mavjud dinlarni yo'qotmasdan, ularni birlashtirib, insonlar orasidagi turli din firqalarni yo'qotish lozim. Bunday birlashtirishni faqat bahoiylik dini bajarishi va birlashtirishi zarur. Bahoiylikning yangi liderlari "Vatan", "millat" kabi tushunchalarni inkor qilib, insoniyat uchun yer yuzining hamma joyi Vatan hisoblanadi. O'zbekistonda Bahoiylarning ro'yxatdan o'tgan 3 ta jamoasi bor (1998). Ular Toshkent, Samarqand, Navoiy shaharlaridadir. O'z an'anaviy bayramlarini o'tkazadilar. Xayfa shahriga ziyoratga borib turadi. Bahoiylar Osiyoning ba'zi mamlakatlarida ham bor. Ularning ko'pchiligi Yevropa va Amerikada. Asosiy markazlari Germaniya, AQSh, Panamada. Markaziy qarorgohi Xayfa (Isroil) shahrida. 1979 yilda Eron islom inqilobidan so'ng bu ta'limotning o'nlab rahnamolari qatl etildi.

Din insonning kundlik maishiy turmushi bilan uzviy bog'liq. Inson har kun va har soatda diniy rasm-rusm yoki uning aqidalaridan foydalanishi mumkin. Ilmiy dunyoqarashga ega bo'lsa-da paradoksli vaziyatlarda diniy dunyoqarash ham kerak bo'ladi. Shunday vaziyatlarda to'g'ri xulosa chiqarish muhim ahamiyatga ega. Bugungi kunda shunday holatlarda kishilar ijtimoiy tarmoqlardan javob qidiradi. Har kim har kuni turli xil internet sahifalariga kirayotgani va u axborotlarni filtrlab olayaptimi yoki yo'qmi yoki qaysi saytlardan foydalanish ko'nikmasi bormi yoki y o'qmi degan savol paydo bo'ladi. Global dunyoda dunyoqarash uchun global muammolar shu yerda paydo bo'ladi. Dindan azaldan komil inson axloqini shakllantirish uchun foydalanilgan. Bugungi globallashuv davrida axloqning devalvatsiyasi kuchayib bormoqda. Jamiyatda yashayotgan har bir kishi qaysi kasb egasi bo'lishidan qa'tiy nazar y'ni, dunyoviy davlat idorasida yoki nodavlat diniy va dunyodiy idoralarda ishlashidan qa'tiy nazar o'z axloqini isloh qilish immunitetiga ega bo'lishi kerak. Aks holda, ijtimoiy adolatsizlik va diniy matnlarni noto'g'ri talqin qilish jamiyatda radikal dunyoqarashni keltirib chiqarishi mumkin. Yoshlar ongini salbiy jihatga manipulyatsiya qilish va radikal qarashni hayotga tadbiq qilishga urinish eksterimizmga olib keladi. Jamiyatimizda "Jaholotga qarshi ma'rifat" kontseptsiyasi qanchalik to'g'ri tanlangnini hayotning o'zi isbotlab turibdi.

Ekologik inqiroz avj olayotgan hozirgi davrda din bu jarayonda axloqiy ma'suliyatni shakllatirishda muhim rol o'ynashi mumkin. Ekoteologik dunyoqarashni shakllantirishda dindan goya sifatida foydalanish jamiyatda ekologik

ma'suliyatni shakllantirishga ijtimoiy kuch sifatida ta'sir qiladi. Islom dinida bejizga "yer Allohning omonoti" deb ta'kidlanmagan.

Bugungi iqlim o'zgarishlari davrida din va diniy idora xodimlari hamda ular faoliyat ko'rsatayotgan idoralar ekologik madaniyatni targ'ib qiladigan makonga aylanishiga ehtiyoj sezilmoqda.

Migratsiya bugun tabiiy bir holat bo'lib bormoqda. Iqtisodiy, siyosiy va diniy sabab bilan boshqa davlat hududlariga ko'chib borayotgan fuqarolar soni yildan yil oshib bormoqda. Shunday davrda tolerantlik (bag'rikenglik) tamoyili tufayli migrantlarning yangi jamiyatga moslashuvi (integratsiyasi) tizimli bo'ladi. Tinchlik, yaxshi qo'shnichilik va mehr-oqibat bo'lsa migratsiya oqibati ancha yumshashi tabiiy bir hol. Demak, dindan global muammolarni tushunishda va uning oldini olishda muhim ijtimoiy-ma'naviy kuch sifatida foydalanish mumkin.

Markaziy osiyo davlat rahbarlari global ekologik muammolarning yechimini topishda yangi bir davrga qadam qo'ydi desak bo'ladi. Prezident Sh. Mirziyoyev yaqinda " Markaziy Osiyo barqaror ekologik rivojlanish mintaqasi va atrof-muhitga mas'uliyatli munosabatning namunasi bo'lishga qodir va shunday bo'lishi kerak"⁹ deb ta'kidladi.

XULOSA (CONCLUSION)

Demak, din din global muammolarni hal qilishda ikki tomonlama rol o'ynaydi: birinchisi, ijobiy insoniyatni tinchlik, tabiatni asrash, birdamlik va adolat va bag'rikenglikga chorlaydi. Ikkinchi jihatdan esa, salbiy ayrim hollarda siyosiy kuchlar tomonidan noto'g'ri talqin qilinsa, radikalizm va mojarolarga sabab bo'lishi mumkin. Shunday qilib, dindan to'g'ri foydalanilsa global muammolarni hal qilishda axloqiy asos va xalqaro munosabatlarda birdamlik manbai bo'lib xizmat qilishi mumkin.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 80-sessiyasidagi nutqidan 23.09.2025
2. Muxtarov B. Globallashuv jarayonida zamonaviy tariqatlar faoliyati., o'quv-uslubiy qo'llanma. "BOOKMANY PRINT" Toshkent-2022. qarang 7-8 sahifa
3. <https://lex.uz/docs/-6445145> 71-modda
4. [Taqiqlangan materiallar.pdf](#)
5. <https://lex.uz/docs/-5491534> O'zbekiston Respublikasining Qonuni "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida" 05.07.2021 yildagi O'RQ-699-son 7-modda. Dinning davlatdan ajratilganligi

⁹ <https://president.uz/oz/lists/view/8653.Prezident> Sh. Mirziyoyev "MARKAZIY OSIYO YANGI DAVR OSTONASIDA" maqolasidan 13.11.2025

6. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. – T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 464-465-betlar.
7. Qarang: Питш Р. Современное секулярное государство в условиях исламского общества. // Секуляризм и ислам в современном государстве: Что их объединяет? Материалы международного “круглого стола” (Алматы за ноября 2004 г.). Б.К.Султанов – Алматы: КНСИ при Президенте Р.К., 2008. – с. 39.
8. Saifnazarov, Ismoil. Dinlararo hamjihatlik - ijtimoiy barqarorlik omili [Matn] : monografiya / I. Saifnazarov, A. Obidov. - Toshkent : Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi, 2019. - 142 b
9. <https://president.uz/oz/lists/view/8653.Prezident> Sh.Mirziyoyev “MARKAZIY OSIYO YANGI DAVR OSTONASIDA” maqolasidan 13.11.2025